

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIGA, ULARNI ISHLAB CHIQRISH VOSITALARIGA VA XALQ ISTE'MOLI MOLLARIGA SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK XULOSA BERISH TARTIBIGA OID

USLUBIY QO'LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste'moli mollariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish tartibiga oid uslubiy qo'llanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – 19 b.

Mazkur uslubiy qo'llanma oziq-ovqat mahsulotlari, ularni ishlab chiqarish vositalari hamda xalq iste'moli mollariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish tartibini belgilash va yagona amaliy mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu tartib, eng avvalo, aholining sog'lig'ini muhofaza qilish, iste'mol qilinadigan mahsulotlarning sifatini va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, xalq xo'jaligi sohalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sanitariya-gigiyenik talablarga mos bo'lishini nazorat qilishga qaratilgan.

Qo'llanmada sanitariya-epidemiologik xulosa berish jarayonining huquqiy asoslari, ekspertiza o'tkazishning tartib va shartlari, amaliy bosqichlari hamda mas'ul tashkilotlarning vazifalari batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, mazkur hujjat tadbirkorlik subyektlari, ishlab chiqaruvchilar, importyorlar, mutasaddi davlat organlari va amaliyotchi mutaxassislar uchun amaliy metodik ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

O'zbekiston Respublikasining
"Oziq-ovqat mahsulotining sifati
va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni



O'zbekiston Respublikasining
"Texnik jihatdan tartibga solish
to'g'risida"gi Qonuni



Vazirlar Mahkamasining 2004-yil
6-iyuldagi 318-sonli "Mahsulotlarni
sertifikatlashtirish tartibotini
soddalashtirishga doir qo'shimcha
chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori



KIRISH

So'nggi yillarda aholining sog'lom turmush tarzini ta'minlash hamda oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Global integratsiya, ishlab chiqarish hajmining oshishi hamda yangi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida mahsulot turlari ko'lamining kengayishi sanitariya-gigiyenik me'yorlarga rioya etishni yanada dolzarb masalaga aylantirdi. Shu sababli, sanitariya-epidemiologik xulosa berish tartibini yagona standart asosida yo'lga qo'yish, uni izchil va shaffof mexanizm orqali amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Mazkur qo'llanma oziq-ovqat mahsulotlari, ularni ishlab chiqarish vositalari hamda xalq iste'moli mollariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish tartibini tizimli ravishda yoritadi. Unda xulosa olishning huquqiy asoslari, ariza topshirish talablari, laboratoriya tadqiqotlari, baholash mezonlari va yakuniy xulosani rasmiylashtirish tartib-taomillari izchil ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, qo'llanma tadbirkorlik subyektlari, ishlab chiqaruvchilar va sanitariya-epidemiologiya xizmati mutaxassislari uchun amaliy metodik ko'rsatma sifatida xizmat qiladi.



Umumiy qoidalar



Bilib oling!

Sanitariya-epidemiologik xulosa — oziq-ovqat mahsulotining va uni tayyorlash hamda undan foydalanish uchun mo'ljallangan uskunalarning sanitariya qoidalariga, normalariga va gigiyena normativlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.



Sanitariya-epidemiologik xulosa texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda gigiyenik normalar va talablar mavjud bo'lgan mahsulotlarga beriladi.



Sanitariya-epidemiologik xulosa berish uchun mahsulot ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-iyuldagi 318-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulotlarni sertifikatlash-tirish tartibi to'g'risida"gi nizomda belgilanganidan oshmagan miqdorlarda ariza beruvchi mablag'lari hisobiga o'tkaziladi.



Mahsulotlar ekspertizasi qachon o'tkaziladi?

- yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganda; ishlab chiqarilayotgan mahsulot tarkibi o'zgarganda;
- mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologik jarayonining konstruksiyalari, komplektatsiyalari o'zgarganda;
- tajriba uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarga;
- respublika hududiga olib kiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollariga;
- mahsulot ishlab chiqarish uchun berilgan sanitariya-epidemiologik xulosaning yaroqlilik muddati tugaganda o'tkaziladi.
- Mahsulotlarni gigiyenik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun tahlillar O'zbekiston Respublikasi Milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiya qilingan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining hududiy organlari (bundan buyon matnda Sanepidqo'mning hududiy organlari deb yuritiladi) laboratoriyalarida (bundan buyon matnda laboratoriya deb yuritiladi) akkreditatsiya sohasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Bir-birini takrorlovchi tahlillar o'tkazilishining oldini olish maqsadida akkreditatsiya qilingan laboratoriyalar boshqa akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarning tahlil natijalarini tan olishlari lozim.



Sanitariya-epidemiologiya ekspertizasini o'tkazish

**Mahsulotni sanitariya-epidemiologik ekspertizasini
o'tkazish quyidagilarni o'z ichiga oladi:**



arizani qabul qilish;



arizaga ilova qilingan hujjatlarni o'rganish;



mahsulot ekspertisasi rejasini tuzish;



sanitariya-epidemiologiya ekspertizasini o'tkazish
to'g'risida shartnoma tuzish;



ishlab chiqarish obyektni sanitariya tekshiruvdan
o'tkazish va laboratoriya tahlillarini o'tkazish uchun
mahsulotlardan namunalar olish;



laboratoriya tahlillarini o'tkazish;



sanitariya-epidemiologik xulosani berish.



Arizani qabul qilish, hujjatlarni o'rganish va mahsulot ekspertizasi rejasini tuzish

Sanitariya-epidemiologik xulosa olish uchun ariza beruvchi Sanepidqo'mning hududiy organlari Bosh vrachi nomiga mazkur ariza bilan murojaat qiladi.

ESLAB QOLING!

Arizaga ishlab chiqariladigan mahsulotga texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatning nusxasi (*Davlatlararo standart — GOST, O'zbekiston Respublikasi-ning Davlat standarti — O'zDSt, Tashkilotning standarti — Ts*) va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda — texnologik yo'riqnoma va retseptura ilova qilinadi.

Chetdan olib kelinadigan mahsulotga sanitariya-epidemiologik xulosa olish uchun qo'shimcha ravishda:



O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga kelganlik to'g'risidagi belgi qo'yilgan holda tovarga ilova qilinadigan hujjatlarning (tovar-transport yuk xati, invoices, schyot-faktura) nusxalari;



ishlab chiqaruvchining kelib chiqish mamlakati sertifikat (tovarning kelib chiqishi to'g'risida ishonchli ma'lumot mavjud bo'lmagan taqdirda) nusxalari;



aynan bir xil mahsulot bir tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida chetdan olib kelinayotgan hollarda ushbu tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) nusxasi taqdim etiladi.

Sanitariya-epidemiologik xulosa olish uchun ariza kelib tushgan kuni ijro uchun Sanepidqo'mning hududiy organlari bosh vrachi imzosi bilan sanitariya-epidemiologik xulosa berish bilan shug'ullanuvchi bo'lim (bo'linma) mudiriga beriladi.

Bo'lim (bo'linma) mudiri soha mutaxassislari – ovqatlanish gigiyenasi, mehnat gigiyenasi, kommunal gigiyena, bolalar va o'smirlar gigiyenasi bo'limlari va boshqa bo'lim vrach-mutaxassislari bilan birgalikda ariza hamda unga ilova qilingan hujjatlarni o'rganib chiqadi.

Agarda hujjatlar to'liq holda taqdim qilingan bo'lsa, mahsulot turiga qarab ekspertiza (namunalar olish, ishlab chiqarish obyektida sanitariya tekshiruvini o'tkazish), laboratoriya (sanitariya-kimyoviy, bakteriologik, radiologik, toksikologik, parazitologik) tahlillari o'tkazish rejasi tuziladi hamda sanitariya-epidemiologik xulosa berish uchun mas'ul sanitariya vrachi tayinlanadi.

Mahsulot ekspertizasi rejasi tuzilganidan keyin Sanepidqo'mning hududiy organlari va ariza beruvchi o'rtasida sanitariya-epidemiologiya ekspertizasi o'tkazish to'g'risida shartnoma tuziladi.

Hujjatlar to'liq holda taqdim qilinmagan taqdirda

Sanepidqo'mning hududiy organlari tomonidan bir kunlik muddat ichida ariza beruvchiga qonunchilikning aniq normalari ko'rsatilgan holda sanitariya-epidemiologik xulosa berish rad etilganligi to'g'risida yozma shaklda ma'lum qilinadi.

Mahsulot kelib chiqishiga ko'ra, hayvonot yoki o'simlik dunyosiga tegishli bo'lgan taqdirda, mas'ul sanitariya vrachi hujjatlar olingan sanadan keyingi kundan kechikmay, veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi berish bo'yicha vakolatli organlarga murojaat qiladi.

Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining tuman (shahar) bo'limlari (bundan buyon matnda Veterinariya xizmatining hududiy bo'linmalari deb yuritiladi) yoki O'simliklar karantini va himoyasi agentligining hududiy bo'linmalari (bundan buyon matnda O'simliklar karantini agentligining hududiy bo'linmalari deb yuritiladi) tomonidan beriladi.

Veterinariya xizmatining hududiy bo'linmalari yigirma kungacha bo'lgan muddat bilan belgilangan tartibda ajratib qo'yish-cheklash tadbirlarini (karantin) belgilashi mumkin. Bunda veterinariya xulosasi berish tartiboti karantin muddati tamom bo'lgunga qadar to'xtatib turiladi. Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasini tayyorlash va berish muddati uch ish kunidan oshmasligi kerak.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari tegishli xulosalar olish uchun Veterinariya xizmatining hududiy bo'linmalari va O'simliklar karantini va himoyasi agentligining hududiy bo'linmalariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqlidir.

Ishlab chiqarish obyektni sanitariya tekshiruvdan o'tkazish va mahsulotlardan namunalar olish



Taqdim etilgan hujjatlar o'rganib chiqilgandan keyin mas'ul sanitariya vrachi tomonidan belgilangan tartibda ishlab chiqarish obyektni tekshirish va/yoki laboratoriya tahlillari uchun namunalar olish maqsadida joyning o'ziga boriladi.

Mahsulotlarga sanitariya-epidemiologik xulosa berish ularni ishlab chiqarish texnik uskunalariga sanitariya-epidemiologik xulosa olishni talab qilgan hollarda avval texnik uskunalariga sanitariya-epidemiologik xulosa olinishi lozim.

Buning uchun mas'ul sanitariya vrachi tomonidan laboratoriya mutaxassisi bilan birgalikda ishlab chiqarish korxonasidagi texnik uskunalaridan surtmalar olinadi hamda ikki nusxada mazkur Yo'riqnomaning 2-ilovasida keltirilgan shaklda sanitariya tekshiruvi dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma mas'ul sanitariya vrachi, laboratoriya mutaxassisi va mahsulot egasi yoki uning vakili tomonidan imzolanib, uning bir nusxasi mahsulot egasi yoki uning vakiliga beriladi.



Surtmalar texnik uskunaning bevosita mahsulotga tegib turadigan joyidan olinadi.





Texnologik uskunadan olingan surtmalar laboratoriyaga topshiriladi.



Respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlarga sanitariya-epidemiologik xulosa olish uchun mahsulotlarning namunaviy partiyasi ishlab chiqariladi.



Mahsulot ekspertizasi o'tkazilishida mahsulot bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarning mahsulotlarga muvofiqligi taqqoslanadi.

Shuningdek, mahsulotlarni tashishda qo'llaniladigan transport vositasining sanitariya holati, mahsulotlarni saqlash sharoitlariga baho beriladi.



Bilib oling!

Mahsulot idishlari, o'rov materiallarining holati bo'yicha quyidagilar o'rganiladi:

- nomi, shifri, navi, TIF TN kodi;
- mahsulot ishlab chiqaruvchining nomi;

- iste'molga yaroqlilik va ishlab chiqarilgan muddati (yaroqlilik muddati tugagan mahsulotlar ekspertizadan o'tkazilmaydi);
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ro'yxat raqamlari;
- mahsulotlarni saqlash sharoiti, buzilish alomatlari, ifloslanganligi, begona hidlarning bor yoki yo'qligi;
- mahsulot shisha idishlarda bo'lsa, ularning berkligi;
- oziq-ovqat mahsulotlarini tashish, qadoqlash materiallari, yordamchi materiallar xavfsizlik ko'rsatkichlarining sanitariya qoida va me'yorlari talablariga javob berishi.

Ishlab chiqarish korxonasini yoki respublika hududiga olib kirilayotgan mahsulotlarning sanitariya tekshiruv natijalari bo'yicha 2 nusxada korxona sanitariya tekshiruv dalolatnomasi tuziladi. Dalolatnoma mas'ul sanitariya vrachi va mahsulot egasi yoki uning vakili tomonidan imzolanib, uning bir nusxasi mahsulot egasi yoki uning vakiliga beriladi.

Mas'ul sanitariya vrachi mahsulot namunasini bakterio-logik, toksikologik, sanitariya-kimyoviy, radiologik, parazitologik, virusologik tahlillar uchun texnik jihatdan tartibga solish soha-sidagi normativ hujjatlarda belgilangan miqdorda oladi va ikki nusxada mazkur Yo'riqnomaning 3-ilovasida keltirilgan shaklda namuna olish dalolatnomasi tuzadi. Dalolatnoma sanitariya vrachi va mahsulot egasi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Uning bir nusxasi mahsulot egasi yoki uning vakiliga beriladi.

Namunalar toza idishga joylanadi, markalanadi, surg'uch-lanadi va mas'ul sanitariya vrachi tomonidan namuna olinganligi

to'g'risidagi dalolatnomaning bir nusxasi bilan akkreditatsiyadan o'tgan Sanepidqo'mning hududiy organlari laboratoriyasiga taqdim qilinadi. Bakteriologik sinovlar uchun olingan namunalar sterillangan idishda yoki original o'ramda jo'natiladi.

Olingan namunalar mahsulot partiyasini to'liq ravishda aks ettirishi lozim.



Bilib oling!

Turi bir xil, navi va nomlanishi bir xil, bir smenada ishlab chiqarilgan va texnologik jihatdan bir xil ishlovdan o'tgan mahsulot bir xil partiya hisoblanadi.

Bitta ishlab chiqarish obyektida tayyorlangan, ma'lum hajm va og'irlikdagi, bir xil yuk xati va sifat sertifikatiga ega bo'lgan mahsulot bir xil yuk partiyasi hisoblanadi.



Sanitariya-epidemiologik xulosani rasmiylashtirish va berish

Sanitariya-epidemiologik xulosani rasmiylashtirish uchun mas'ul bo'lgan sanitariya vrachi tomonidan xat (ariza, murojaatnoma), shartnoma, sanitariya tekshiruvi dalolatnomasi, bajarilgan ishlar dalolatnomasi, laboratoriya tahlili

bayonnomasi hamda namuna olish dalolatnomasi bilan birgalikda sanitariya-epidemiologiya xulosasini berish bilan shug'ullanuvchi bo'lim (bo'linma) mudiriga taqdim etiladi.

DIQQAT!

Taqdim qilingan hujjatlarning ekspertizasi va laboratoriya tahlillari natijalariga ko'ra sanitariya-epidemiologik xulosa 1 ish kunida rasmiylashtiriladi.



Sanitariya-epidemiologik xulosa Sanepidqo'mning hududiy organlari bosh vrachining imzosi va ushbu Sanepidqo'mning hududiy organlarining muhri bilan tasdiqlangan holda beriladi, unga laboratoriya tahlili bayonnomasi nusxalari ilova qilinadi.



Veterinariya va fitosanitariya xulosalari olinishi hisobga olingan holda sanitariya-epidemiologik xulosani rasmiylashtirish va berish muddati tegishli tahlillar usullari uchun normativ hujjatlarda nazarda tutilgan muddatlarga qarab, biroq 10 kundan oshmagan holda belgilanadi.



51. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga sanitariya-epidemiologik xulosa — 3 yil muddatga, chetdan olib kelinayotgan mahsulotga — mahsulotning yaroqlilik davriga, yaroqlilik muddatiga ega bo'lmagan mahsulotga esa — muddati ko'rsatilmasdan beriladi.



Bilib oling!

1 tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida chetdan olib kelinayotgan aynan 1 xil mahsulotga sanitariya-epidemiologik xulosa — 1 kalendar yilidan oshmagan muddatga beriladi.

Sanitariya-epidemiologik xulosa:

- nusxasi,
- ariza,
- shartnoma,
- birlamchi hujjatlar,
- bajarilgan ishlar dalolatnomasi,
- laboratoriya tahlili bayonnomalari,
- namuna olish dalolatnomasi,
- sanitariya tekshiruv dalolatnomasi,
- normativ hujjatlar nusxasi,
- kuzatuv xati bilan birgalikda sanitariya-epidemiologiya xulosasining yaroqlilik muddati tugagunga qadar arxivda saqlanadi.

ESLAB QOLING!

Yaroqlilik muddati bo'lmagan mahsulotlarga berilgan sanitariya-epidemiologiya xulosalariga tegishli bo'lgan hujjatlar 4 yilgacha, chetdan olib kelinayotgan mahsulotga esa berilgan sanitariya-epidemiologiya xulosaning yaroqlilik muddati tugagandan so'ng 1 yil o'tguncha arxivda saqlanadi.



YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Ariza beruvchi sanitariya-epidemiologiya xulosa berishning rad etilganligi yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi**

(tegishli DSENM nomi)

SANITARIYA TEKSHIRUVI DALOLATNOMASI

20__yil " __ " _____

Men _____
(mas'ul sanitariya vrachi F.I.O)

Quyidagilar ishtirokida _____
(mahsulot egasi

_____ yoki uning vakili F.I.O, lavozimi)

_____ (sanitariya tekshiruvi o'tkazilgan joy manzili)

sanitariya tekshiruvi o'tkazildi va quyidagilar aniqlandi:

1. _____
(mas'ul sanitariya vrachi F.I.O) (imzo)

2. _____
(mahsulot egasi yoki uning vakili F.I.O) (imzo)

Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste'moli mollariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish tartibiga oid uslubiy qo'llanma

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturasida.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.